

CHOLG'U IJROCHILIGINI O'QITISHDAGI MUHIM MASALALAR

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek milliy musiqa san'atini o'qitishdagi bir qator dolzarb muammolar va ularni yechimalari, maqom san'atini talabalarga o'rgatishdagi ilg'or tajribalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *milliy musiqa, maqom san'ati, cholg'u ijrochiligi, honandalik san'ati, ijrochilik*

Dunyoda har bir millatning milliy qadryatlari, mumtoz musiqasi xalqning yuksak hurmat e'tiborida bo'ladi. O'zbek xalqining mumtoz musiqasi ham necha ming yillardan beri asrab, avaylanib avlodlarga yetkazib kelinmoqda. Bugun yurtimizda milliy musiqa, hususan, mumtoz musiqamizga bo'lgan e'tibor har doimgidan ham yuksak darajada desak mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari"[1] to'g'risidagi qarori, vazirlar mahkasining qarorlari, madaniyat vazirligi tomonidan qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar mumtoz musiqamizga bo'lgan yuksak xurmat namunasidir.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonda birinchi bor Qarshi shahrida "Xalqaro maqom anjumani"ning o'tkazilishi, har bir viloyatlarda "Maqom markazlari" ning tashkil etilishi ularning faoliyatlariga alohida e'tibor berilishi tahsinga sazovordir.

Shu bilan birga milliy musiqa san'atida yutuqlar bilan bir qatorda kamchilik va muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Milliy musiqa san'atini yoshlarga o'rgatish, ta'lim-tarbiya berishda, san'at maktablari va shu sohadagi o'quv yurtlarining malakali kadrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek an'anaviy cholg'u ijrochiligi madaniyati birinchi marta cholg'u, ijrochilik va musiqa tarkiblarini birlashtiruvchi yaxlit hodisa sifatida o'rganiladi. Maishiy turmush va madaniyatni tovush hosil qilish tizimi va cholg'u ijrochiligi badiiy darajasiga ta'sirini tadqiq qilishga e'tibor qaratiladi. O'zbek musiqa sohasida birinchi marta xalq an'anaviy tafakkuri va sozanda tovush timsoli hamda "ijrochilik" tushunchasi konsepsiyasi ilmiy muomalaga kiritiladi[2, 26].

Moskvada tahsil olgan Sh.Sulaymon yozadi: "boshqa xalqlarnikiga qaraganda oz bo'lsada ko'proq bizning ham ota-bobolarimizdan va eski zamonlardan qolgan ko'pgina kuylarimiz, ashulalarimiz bordirki, bu kunda ularning ko'plari unutilib ketmoqda... milliy kuylarimizning qadr-qimmatini bilgan Ovro'po musiqashunoslari bugun bizning kuylarimizni xususiy suratda notaga olmoqdalar.

Muhiddin qori Yoqubiy, G'ulom Zafariylardan foydalanib Mironovning chiqargan "Sharq notalari" bunga ochiq shohiddir.

Turkistonda boshqa ko'p ishlar qatorida bizning kuylarimiz, milliy qo'shiqlarimiz ko'zga olinmayin unutilib yotadur.

Ular uchun musiqa kuy maktablari, konservatoriyalar yo'qdir[3]

Birinchi masala: malakali kadrlar tayyorlash masalasi hozirgi kunda nafaqat san'at sohasida, balki, boshqa yetakchi sohalarda ham dolzarb masala sanaladi. San'at va madaniyat sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashda musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktablarining o'rne muhim va asosiy ta'lim beruvchi tizim hisoblanadi.

Musiqani chuqur o'rgatish va uni o'zlashtirishda asosiy hisoblangan o'rta bo'g'in, ya'ni, kasb-hunar ta'limi tizimidagi yangi islohotlar natijasida o'quv tizimi 3 yillikdan 2 yillikga o'tkazilishi, o'quvchilarni shu sohada chuqur bilim olishida yetarli muddat emasligini ko'rsatmoqda. Sababi: ushbu muddat ichida o'quvchi kerakli bilim va ko'nikmalarni to'la qonli olishga erisholmaydi.

Masalan, hozirgi san'at kollejining 2-bosqich "An'anaviy cholg'ular ijrochisi" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi o'quvchilarida haftalik soatlari: umumta'lim maktabi dasturidagi soatlar 28 soat (1 akademik o'quv soati 45 minutni tashkil etadi), mutaxassislikka ajratilgan soatlar esa 3 soatni (Ansambl va boshqa mutaxassislikka oid fanlardan tashqari)tashkil etadi. Yillik o'quv soatlarida umumta'lim fanlari % ni, mutahassisilik fanlariga ajratilgan fanlar esa % ni tashkil etyapti.

Bo'lg'usi sozanda yoki xonandani musiqiy bilim olishida asosiy fan mutaxassisilik hisoblanmaydimi? Bu masalaning birinchi tomoni, ikkinchi tomoni bolalar musiqa va san'at maktablaridagi mutaxassis kadrlar yetishmasligi natijasida kollej tizimiga o'quvchilarni qabul qilish jarayonida (An'anaviy cholg'ular ijrochisi mutaxassisligiga) "Chang", "Qonun", "Ud", "Nay", "Qo'shnay" kabi cholg'u sozlarida birmuncha muammolar yuzaga kelmoqda. Sababi, o'quvchilarni har bir cholg'uga tanlov asosida qabul qilinadi.

Iqtidori, ijrochilik mahorati, musiqiy bilimi va ijrosini hisobga olgan holda boshqa cholg'uda kelgan o'quvchilarni ushbu cholg'u sozlariga tanlab olayapmiz. Bu o'quvchilarga yuqoridagi cholg'uni talab darajasida uning yetuk ijrochiligiga erishtirish jarayonida o'quv muddati yetarli emasligi hammamizga ma'lum.

Masalani yana bir tomoni, bolalar musiqa va san'at maktabi tizimida milliy musiqamizni o'rgatuvchi "An'anaviy ijrochilik" bo'limlari hamma maktablarda mavjud emasligi, yoki bor bo'lsa ham maxsus cholg'u mutaxassisligiga ega bo'lgan sifatli kadrlar bilan ta'minlanmaganligi sabab bo'lmoqda.

Shu sababli turli muammolar yuzaga kelmoqda.

Ikkinchi masala: adabiyotlar masalasi. Adabiyotlarning aynan milliy ijrochilikni o'qitishga hos bo'lgan adabiyotlar yetishmasligi.

Mavjud adabiyotlar har bir cholg'u ijrochiligi bo'yicha juda kam, yaroqsiz holatga kelib qolgan. Bugungi kunda chop etilayotgan adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari, o'quv uslubi qo'llanmalari talab darajasida deya olmaymiz.

Sababi, ba'zi qo'llanmalarni olib uni taxlil qilib amaliyotga tadbiiq etganimizda, uni ichki tizimini o'qib o'rganishimiz jaryonida turli kamchilik va sifatsiz ma'lumotlarga duch kelamiz. Nota matni kuy ijrosidan yiroqda. Yaratilayotgan qo'llanma, o'quv uslubi qo'llanmalarning deyarli 50 %i mualliflarning ilmiy ishlari emas, chunki nota matniga asoslanib ijro etganimizda asarning asosi va uni ijrosi nota matniga mos kelmaydi va xatoliklar bilan beriladi. Kimlarnidir tomonidan notaga tushirilgan, yoki noto'g'ri ijro etilgan asarning ijrosida nota matniga olinib unga asoslanib chop ettirilayapti. Shu sababli aniq ma'lumotlarga tayangan holda ustozlar ijrosini tinglab, eshitib, o'zimiz ijro qilib, nota matniga tushirib, shu asosida dars mashg'ulotlarni olib borayapmiz. An'anaviy cholg'ularni o'rgatishda bir qator cholg'ularimizga oid adabiyotlar deyarli juda kam. Chang, qonun, ud, qo'shnay, doira kabi cholg'ularimizga adabiyotlar yetishmaydi. Masalan: An'anaviy doira ijrochiligiga moslab chop etilgan adabiyotlardagi asarlarni Nog'orada ijro etsa bo'ladi. Milliy musiqa ijrochiligi san'atida nog'oraning o'z o'rni bor. Lekin maxsus "Nog'ora" cholg'usiga moslab asarlar saralab chop etilmagan. Yoki "Doira" cholg'usida ijro etiladigan 15-20 ta asosiy o'zbek doira usullari asarlaridan boshqa yangi asarlarni biz uchratmayapmiz. Shuning uchun adabiyotlardagi muammolar yuzaga chiqmoqda.

Uchinchi masala: Cholg'u sozlarini yasash va ularni ta'mirlash masalasi. Ijro etilayotgan asarlarning saviyasi cholg'u sozining mustahkam va sifatli, talabga mos ravishda bo'lishi lozim. Bugungi kunda ustalarimiz tomonidan yasalayotgan cholg'u sozlarining ko'pchiligi talabga mos kelmaydi. Bolalar musiqa va san'at maktablari hisobiga yangi keltirilgan cholg'u sozlari ham talab darajasida emas. Chunki, cholg'u yasayotgan ustalarning ba'zilar o'zlari yasayotgan cholg'u sozlarini ijro etmaydilar, ijro etishni bilmaydilar. Shu sababli cholg'u sozlarni o'lchamlaridagi kamchiliklari, ijrochilikdagi katta tafovutni keltirib chiqaryapti. Misol uchun: An'anaviy ijrochilikka xos qilib yasalayotgan "G'ijjak" cholg'usini oladigan bo'lsak; Toshkentda yasalayotgan g'ijjaklar dastasi 33 sm, Andijonda 30 sm, Qo'qonda yoki boshqa vohalarda yasalayotgan g'ijjakning dastasi 32 sm yoki yana boshqacha o'lchamlarda uchratishimiz mumkin. Biz cholg'uning kosaxonasini nazarda tutmaymiz. Tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlasak ham qadimdan g'ijjakning kosaxonasi turlicha yasalgan, lekin dasta bir xil bo'lgan. Cholg'u ijrochiligida asosan kuy, asar dasta bilan bog'liq. Kosaxona ovoz chiqarishga mo'ljallangan xolos. Shu sababli ustalarimizdan kosaxona masalasida e'tirozlarimiz yo'q. Dastaga kelsak, ustalarimiz turlicha o'lcham va shaklga keltirib qo'ymoqdalar. Milliy ijrochiligimizdagi asarlar milliy bezak va nola qochirimlarga boy uni to'liq ko'rsatishda mohir ijrochi bilan bir qatorda cholg'uning dastasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar cholg'u sozi sifatli va yaxshi holatda bo'lsa, o'quvchi ham uni maroq bilan ijro etadi. Bu birgina g'ijjak sozida emas, boshqa sozlarimizda ham ko'plab uchraydi. Yana bir masala chang, doira, ud, qo'shnay kabi cholg'u sozlarimizni mohir ustalari allaqachon vafot etganlar. Ularni yasash to'htatilgan. Biz ular yasab ketgan cholg'ularni borini asrab avaylab kelyapmiz. Yoki ud, qonun, qo'shnay cholg'ularini chet mamlakatlardan sotib olayapmiz. Iqtisodiy tarafdin hammaning ham imkoniyatlari

qimmat narxlarni ko'tarmaydi. Ayrim cholg'ularimizning narxlari chet el valyutasiga baholanib 200-1000 AQSH dollarigacha bo'lgan narxlarda sotilmoqda. Cholg'u sozlarini ta'mirlashda ham bir necha muammolar yuzaga kelayapti. Yaxshi, sifatli ta'mirlash ustaxonalari yo'qligi yoki musiqa, cholg'u sozlari bilimiga ega bo'lmagan insonlarga ko'plab duch kelyapmiz. Ustalar masalasi judayam dolzarb masala darajasiga kelib qoldi desak, hato bo'lmaydi.

Yuqorida keltirgan masala va muammolarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Milliy mumtoz musiqamiz va uni rivojlanishida yuqoridagi muammolar ham to'sqinlik qilmoqda. Muammolarni yechimini hal etish bu dolzarb hisoblanadi. Bu borada taklif va tavsiyalarni ko'rsatib o'tishimiz kerak. Birinchidan:

kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini tubdan isloh qilish;

musiqa va san'at maktablari tizimidagi kadrlarni tayyorlashdagi o'rta bo'g'in hisoblangan;

kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv muddatini qayta ko'rib chiqish taklifi;

ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlaridagi o'quv soatlarini ko'paytirish.

Ikkinchidan:

musiqiy adabiyotlarni chop etish va ularni sifat darajasini oshirish;

har bir milliy cholg'u soziga bag'ishlangan adabiyotlarni ko'paytirish;

maqom usullariga, o'zbek milliy usullariga bag'ishlangan, maqom ijrochiligi uslubidagi mahoratni oshiruvchi mashqlar to'plamlarini chop etish;

Yu.Rajabiy notaga yozib F.M.Karomatov tahriri ostida 1966 yildan boshlab chop ettirilgan 6-jildlik "Shashmaqom" kitoblarini asl ko'rinishida qaytadan chop ettirish;

milliy cholg'u sozlari yasash va ularni ta'mirlash to'g'risidagi turli adabiyotlarni chop etish.

Uchinchidan:

cholg'u sozi yasash tizimini tubdan isloh qilish;

cholg'u ustalarining markazlashtirilgan malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Va ularni malakasini oshirish;

cholg'u sozlarini yasashga mo'ljallangan markazlashgan fabrikasini tashkil etish va ularga mohir ustalarni jalb etish;

musiqa va san'at sohasidagi ta'lim berish muassasalaridagi bo'limlar qatoriga cholg'u yasash va ularni ta'mirlash bo'yicha ustalarni tayyorlash, ularni jamiyatga yetkazib berishni ta'minlash va tashkillashtirish;

milliy cholg'u sozlari sifat darajasi va standartini ishlab chiqish. Respublika va dunyo miqyosida ham cholg'u sozlarimiz o'rni va obro'-e'tiborini ko'tarish;

respublika va viloyatlar miqyosida musiqa cholg'ulari yasash va ularni ta'mirlash ustaxonalarini tashkil etish va mohir ustalarni jalb etish.

To'rtinchidan:

ta'lim jarayonida har bir mutaxassislik sinflariga axborot kommunakasion texnologiyalari asosida yangi jixozlar bilan ta'minlash;

televidenie, radio va axborot tarqatuvchi vositalar orqali milliy musiqamizni aks ettiruvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni ko'paytirish.

respublika, viloyat va shaharlar miqyosida televidenie va radiolarda milliy cholg'ularga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuvlarni bepul tashkillashtirish;

respublika televideniesida viloyatlarda faoliyat olib borayotgan maktab va ularda ta'lim berayotgan ustoz-shogirdlarning ijodiy faoliyatlarini bepul yoritish;

yoshlarni milliy musiqaga, qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish;

ko'rik-tanlov, festivallarni tashkil etish, ularni saviyasi, obro'si va ahamiyatini oshirish;

viloyatlardagi musiqa va san'at maktablarida ta'lim oluvchilar uchun mohirlik darajasiga erishgan ustozlarni, ustoz-shogird an'alariga tayangan holda mahorat maktablarini tashkil etish. Mahorat maktablariga halq orasida mashhur va ma'lum sozandalarni va xonandalarni jalb etish.

Milliy musiqa san'atida daholik darajasiga erishgan ustoz sozanda va xonandalarlar ijodiga va ularni faoliyatlariga bag'ishlangan kechalarni respublika va viloyatlar miqyosida tashkil etish. (Masalan: Yu.Rajabiy, F.Sodiqov, J.Sultonov, K.Otaniyozov va hokazolar). Bastakorlik an'alarini rivojlantirish. Ustoz bastakorlarni asarlarini targ'ib qilish va tanlovlar o'tkazish.

Yuqoridagi masalalar, ular yuzasidan berilgan taklif va mulohazalar inobatga olinib, ko'rib chiqilib, bu borada ishlar olib borilsa, milliy musiqa san'atimizda rivojlanish va yangi yutuq va natijalarga erishamiz deb o'ylaymiz.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son.
2. Расултаев Ж. Узбекская традиционная инструментально-исполнительская культура. Автореф. дисс. докт. искусств. – Ташкент, 2004. – 26 с.
3. Sulaymon Sh. Milliy kuy va ashulalarimiz // Farg'ona, 1923-yil, 24-avgust.